

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING NOGIRONLAR HUQUQLARI BO'YICHA QO'MITASI BILAN HAMKORLIGINING ASOSIY SHAKLLARI

Ergashov Behruz Xurshid o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari"
yo'nalishi magistratura talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16627251>

Annotatsiya. *Hammamizga ma'lumki, mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq yurtimizda barcha sohalarida misli ko'rilmagan islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi o'zgarishlar barcha yurtdoshlarimizni mamnun qildi. Amalga oshirilgan barcha islohotlarning tag zamirida inson va uning huquq hamda erkinlikari yotadi. Mazkur islohotlar imkoniyati cheklangan shaxslarni ham e'tibordan chetda qoldirmadi. Ular uchun hozirgi kunda ham yurtimizda qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilib kelinmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi bilan hamkorligi, uning asosiy shakllari va ushbu qo'mita haqida fikr yuritiladi. Xususan, ishtirokchi davlatlarning konvensiya doirasida belgilangan davriy hisobotlarni taqdim etish tartibi, qo'mita tomonidan ushbu hisobotlarni ko'rib chiqish jarayoni va yakuniy tavsiyalar ishlab chiqish amaliyoti yoritiladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati, xususan, nogironlar tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan muqobil hisobotlarining roli va ahamiyati ochib beriladi. Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi va ushbu qo'mitaning ikki tomonlama munosabatlari va ilk taassurotlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Umumjahon miqyosida O'zbekiston Respublikasining boshqa xalqaro subyektlar bilan ushbu doiradagi xalqaro aloqalari haqida ham bir qancha muhim ma'lumotlar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita, konvensiya, davriy hisobot, yakuniy tavsiyalar, fuqarolik jamiyati.*

Dastavval, ushbu mavzuga kirishdan oldin bir qancha jihatlariga e'tibor qaratsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Jumladan, ushbu qo'mitaning xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qilgan mamlakatlar bilan aloqasi va uzviy bog'liqligi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va unga tegishli qo'mitaning faoliyati bu boradagi tashabbus va islohotlarni muvofiqlashtirishda muhim o'rin tutadi. Bunday hamkorlik nogironligi bo'lgan insonlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularni jamiyat hayotining barcha sohalariga to'liq jalb etish, hamda teng imkoniyatlar asosida rivojlanishiga sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Ishtirokchi davlatlar tomonidan Konvensiya doirasida davriy hisobotlar taqdim etilishi, fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki va individual shikoyatlar mexanizmi bu tizimning shaffofligini va samaradorligini oshiradi. Shuningdek, Qo'mita tomonidan ishlab chiqilayotgan umumiy sharhlar va tavsiyalar nogironlar huquqlarini amalda ta'minlash bo'yicha xalqaro tajribaning muhim manbasi hisoblanadi. Shu tariqa, islohotlar nafaqat huquqiy bazani mustahkamlashga, balki jamiyatda inson qadr-qimmatini ulug'lash va ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilgan. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda nafaqat milliy darajada qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda, balki xalqaro tashkilotlar bilan ham samarali hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda.

Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi bilan olib borilayotgan hamkorlik O'zbekistonning imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. BMT Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi 2008 yilda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" doirasida faoliyat yuritadi.

Ushbu qo'mita davlatlarning imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlarini himoya qilish bo'yicha bajarayotgan majburiyatlarini nazorat qiladi hamda maslahatlar beradi. **O'zbekiston esa 2009 -yilda ushbu konvensiyani imzolab, uning talablarini milliy qonunchilikka integratsiya qilishni boshladi va kelajakda ratifikatsiya qilish istagini bildirdi.** Hamkorlik shakllariga kelsak, O'zbekiston va qo'mita o'rtasidagi muloqot muntazam hisobotlar shaklida olib boriladi. O'zbekiston hukumati o'z mamlakatidagi imkoniyati cheklangan shaxslarning holati, qabul qilingan chora-tadbirlar va kelgusidagi rejalar haqida ma'lumot taqdim etadi. Shu bilan birga, BMT qo'mitasi tomonidan taklif va tavsiyalar berilib, ularning milliy qonunchilik va siyosatga tatbiq etilishi ustida ish olib boriladi. BMTning Nogironlar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bilan hamkorlik orqali **O'zbekiston imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya va madaniy hayotga to'la qo'shilishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda.** Bundan tashqari, qo'mita bilan muloqot fuqarolik jamiyati, nogironlar tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlarning fikrlarini inobatga olishga yordam beradi. **2016-yildan boshlangan 3-renessans tufayli mehrga, e'tiborga muhtoj bo'lgan shaxslarga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgardi va yangi qiyofa kasb qildi desak adashmagan bo'lamiz.** Bundan tashqari, qonunchilik sohasida ham jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda. **2020-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"**gi qonunning qabul qilinishi ¹xalqaro standartlarga mos huquqiy poydevorni yaratdi. Bu hujjat nogironlarning siyosiy hayotda, jamiyatda va madaniy faoliyatda ishtirokini qonuniy kafolatlaydi. Hozirda mazkur qonun asosida amaliy reglamentlar ishlab chiqilib, turli sohalarida qo'llanilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Misol uchun, **Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlardagi nogironlar integratsiyasi tajribalari asosida mahalliy modellar ishlab chiqilmoqda.** Bu esa xalqaro tajriba va milliy ehtiyojlarni birlashtirish orqali samarali natijalarga erishishga xizmat qilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz tashabbuslari va shijoatlari bilan nogironligi bo'lgan shaxslar real hayotga qayta kelgandek bo'ldi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Prezidentimizning nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan ta'minlanishiga bo'lgan talab va qat'iy pozitsiyalari tufayli sog'lom insonlar kabi teng va odilona mehnat sharoitlariga ega bo'lishdi. Shu tariqa, O'zbekiston jamiyatining barcha qatlamlari uchun inklyuziv muhit yaratish maqsadida izchil ishlar olib borilmoqda. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining BMT Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi bilan hamkorligi imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatda teng huquqli ishtirokini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu hamkorlik natijasida mamlakatimizda inklyuziv siyosat yanada mustahkamlanib, imkoniyati cheklangan fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlar davom ettirilmoqda.

BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini himoya qilishda xalqaro huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. **Konvensiyaga qo'shilgan ishtirokchi davlatlar, jumladan O'zbekiston ham, uning barcha moddalarini bajarish va amalga oshirish bo'yicha majburiyat olgan. Bu jarayon doirasida eng muhim mexanizmlardan biri — davlatlar tomonidan davriy hisobotlar taqdim etish**

¹ "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" qonun 2020-yil 15-oktabr, O'RQ-641-son

tartibi ekanligi hech kimga sir emas. Davlatlar konvensiyaga qo'shilganidan keyin dastlabki hisobotni ikki yil ichida, undan keyin esa har to'rt yilda bir marta taqdim etishlari lozim. Ushbu hisobotlarda davlatlar konvensiya moddalarining ijrosi bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar, yutuqlar, mavjud muammolar va kelgusi rejalar haqida ma'lumot beradi. O'zbekiston Respublikasi ham bu tartibga rioya etgan holda o'zining birinchi va navbatdagi hisobotlarini BMT Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasiga topshirgan. Qo'mita esa hisobotni ko'rib chiqish jarayonida nafaqat rasmiy ma'lumotlar, balki fuqarolik jamiyati tomonidan taqdim etiladigan muqobil (alternativ) hisobotlarga ham e'tibor qaratadi. **Muqobil hisobotlar odatda nodavlat notijorat tashkilotlari, nogironlar uyushmalari va inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan tayyorlanadi.** Bu hisobotlar davlat tomonidan taqdim etilgan rasmiy hisobotlarga nisbatan tanqidiy yondashuvni ta'minlab, haqiqatga yaqinroq manzarani ochib berishga xizmat qiladi. Ba'zi hollarda **maxsus jurnalistlarning** O'zbekistonga tashrifi davomida o'z ko'zi bilan ko'rgan real holatlarni va kamchiliklarni ekspertlarga taqdim qilishi mumkin, va bu kabi holatlar hozirgi kunda ancha ko'paymoqda. Misol uchun **O'zbekistonga sayohat uchun kelgan turistlarning** aksariyati o'z bloglarini yuritib borib, kundalik video va suratlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylab borishadi. Bu esa millionlab insonlar tomonidan kuzatiladi. Shu kabi tasvirlarda ba'zan imkoniyati cheklangan shaxslarning paydo bo'lishi va ularga yaratilgan yoxud yaratilib berilmagan sharoitlar **kuzatuvchilar orasida muhokama qilinadi. Shu kabi ijtimoiy sahifalardan ham 18 nafardan iborat ekspertlar guruhi o'zi uchun hisobot materiallarini tayyorlashi mumkin va asosli hisoblanadi.** Qo'mita barcha ma'lumotlarni tahlil qilganidan so'ng, ishtirokchi davlatga nisbatan **"yakuniy tavsiyalar"**ni ishlab chiqadi. Bu tavsiyalar muayyan qonunlar, siyosatlar yoki amaliyotdagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, davlat tomonidan bajarilishi kutiladi. Tavsiyalar milliy darajadagi islohotlarga turtki bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, hisobotlar tizimi orqali BMT Nogironlar huquqlari qo'mitasi davlatlarning konvensiyadagi majburiyatlarni qanday ado etayotganini nazorat qiladi. Fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki esa bu jarayonning shaffofligi va haqqoniyligini ta'minlab, imkoniyati cheklangan shaxslarning haqiqiy ehtiyojlarini xalqaro miqyosda yoritish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda inson huquqlari, xususan imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida muhim xalqaro tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Bu yo'nalishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarkibidagi Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita bilan hamkorlik alohida o'rin egallaydi. Mazkur maqola O'zbekiston va ushbu qo'mita o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar, ilk taassurotlar hamda xalqaro maydondagi faoliyatiga oid muhim jihatlarni yoritadi. 2017–2020 yillarda davlat boshlig'i farmonlari, nogiron shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishi, inson huquqlari deklaratsiyasining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar (2018), hamda "Milliy" strategiyalar, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi zahirida ratifikatsiya uchun tayyorgarlik boshlangan. **2021-yil 7-iyunda O'zbekiston BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qildi.** Bu xalqaro hujjat nogironligi bo'lgan shaxslarning teng huquqlari, ayniqsa, ayollar va bolalarning ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat va munosib turmush sharoitlariga ega bo'lishini kafolatlab desak yanglishmagan bo'lamiz. Qo'mita ushbu hisobotni ko'rib chiqib, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan nogironlar uchun qulay muhit yaratish, ularning ta'lim va sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqlarini ta'minlash borasida ijobiy o'zgarishlarni e'tirof etdi. Biroq, shu bilan birga bir qator muammoli sohalarga e'tibor qaratilib, amaliy tavsiyalar berildi. O'zbekistonning ilk tajribasi ikki tomonlama hamkorlikda ochiqlik va konstruktiv muloqotni asosiy tamoyil sifatida tanlaganini

ko'rsatdi. Mamlakatimiz ushbu **qo'mita faoliyatini chuqurroq anglab yetishda tajribali mamlakatlar kuzatuvlari va islohotlarini, bosib o'tgan yo'lini o'zi uchun dastur qilib belgiladi.** Bu jarayonda nafaqat davlat idoralari, balki fuqarolik jamiyati, nogironlar tashkilotlari va mustaqil ekspertlar ham faol ishtirok etdi. Ayniqsa, qo'mitaga taqdim etilgan muqobil hisobotlar jarayonning haqqoniyligini oshirdi. O'zbekiston ushbu yo'nalishda boshqa xalqaro subyektlar bilan ham faol aloqalar o'rnatmoqda. **Xususan, Yevropa Ittifoqi, YUNESKO, UNICEF va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik doirasida nogironlar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.** Bu loyihalar doirasida qonunchilikni takomillashtirish, kadrlar malakasini oshirish, infratuzilmani moslashtirish kabi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Nogironlar huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarini bajarishga bo'lgan yondashuvi tobora tizimli va kompleks tus olmoqda.

BMT Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi bilan hamkorlik doirasidagi faoliyatlar esa bu yo'ldagi muhim bosqichlardan biridir. Shu bilan birga, O'zbekiston ichki siyosatda ham xalqaro tamoyillar bilan uyg'un yondashuvlarni tatbiq etmoqda. Ahamiyatli jihatlardan biri shundaki, hozirgi kunda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv jamiyatni shakllantirish konsepsiyasi asosida yangi dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ular **orasida "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" prezident qarori muhim ahamiyat kasb etadi.**

Ushbu qarorning asosiy yo'nalishlari – bandlik, arzonlashtirilgan sog'liqni saqlash xizmatlari, ta'limdagi tenglik va jamoat transportiga erkin kirishni ta'minlashdir. Qarorda nazarda tutilishicha, tibbiyot muassasalarida davolanayotgan nogironligi bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilish uchun shu muassasada uning otasi yoki onasiga (ularning o'rnini bosuvchi shaxsga) yoxud oilaning bolani bevosita parvarishlayotgan boshqa a'zosiga nogironligi bo'lgan bolaning yonida birga bo'lish uchun sharoit yaratishni, jumladan statsionar tibbiyot muassasalarida nogironligi bo'lgan bolani parvarish qilish bilan band bo'lgan shaxslarga mazkur davr uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi berilishini va bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga qarovchi shaxslar uchun davlat statsionar tibbiyot muassasalarida bepul ovqatlanish yo'lga qo'yilishini ko'zda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat, Nogironligi bo'lgan shaxslarning injenerlik, transport va ijtimoiy infratuzilma obyektlariga to'sqinliksiz kirishini ta'minlash bo'yicha talablarni bajarishdan bo'yin tovlaganlik, shuningdek, ular huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish va boshqa bir qancha loyihalar ko'zda tutilgan². Bundan tashqari **Birlashgan Millatlar Tashkiloti va O'zbekiston Respublikasi hukumati orasida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari bo'yicha qo'shma dasturning ham ishga tushirilishi bevosita qo'mita faoliyati bilan bog'liqdir. Ishga tushirilgan yangi dastur o'z faoliyatini quyidagi ustuvor yo'nalishlarga qaratadi:**

- Barqaror rivojlanish maqsadida (BRM) tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan milliy rivojlanishni baholash, byudjet rejalari, dasturlari va monitoring mexanizmlari mamlakatda inlyuziv rivojlanishga ko'maklashishini ta'minlash uchun BMTning O'zbekistondagi faoliyati doirasida nogironlikning integratsiyasini kuchaytirish

- Kuchli qonunchilik va oqilona siyosat bazasi orqali muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar va nogironlar bilan ishlovchi tashkilotlarini jalb qilish va tomonlarning majburiyatlarini birlashtirish

² Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.02.2023 yildagi PQ-74-son

- Jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarning qo'shilib ketishini qo'llab-quvvatlash, zo'ravonlik va beshafqat munosabatni oldini olish, yoshga doir xizmatlarni rivojlantirish ³

Yuqoridagi qo'shma dasturning qiymati 600,000 ming AQSh dollarini tashkil qilishi kishini xursand qiladi. Chunki shu mablag'lar evaziga qaysidir xonadonga yana tabassum va osoyishtalik kirib keladi. O'zbekistonda nogironlar huquqlarini himoya qilish sohasida yuzlab nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Ular orasida O'zbekiston nogironlar jamiyati, Ko'zi ojizlar jamiyati, Karlar jamiyati va boshqa tashkilotlar mavjud. Ushbu tashkilotlar konvensiyani ratifikatsiya qilish va uning amalga oshirilishida faol ishtirok etmoqda desak adashmagan bo'lamiz. Konvensiyani ratifikatsiya qilgach, mamlaktimizda bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi, jumladan nogironligi bor shaxslar uchun uyda ta'lim jarayoni yanada jadallashdi, shaharlarda esa ko'chalar infrastrukturasi yangicha qiyofa kasb etdi, ko'zi ojizlar uchun maxsus yo'lakchalar, piyodalar yo'llarida signal tovushli moslamalar, metro va ko'priklarda yurish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun o'zi harakatga keladigan uskunalar va boshqa bir qancha amaliy ishlar qilindi. **Konvensiyaning 35 – moddasi talabi bo'yicha**, har bir ishtirokchi davlat ushbu Konvensiya kuchga kirgach, ikki yil ichida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasiga mazkur davlat tomonidan ushbu Konvensiyadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish yo'lida ko'rilgan chora-tadbirlar va bu huquqlardan foydalanish borasida erishilgan yutuqlar haqida **dastlabki hisobotni** topshiradi.

Shundan so'ng, ishtirokchi davlatlar har to'rt yilda va shuningdek, Qo'mita so'ragan taqdirda, har qanday qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan **keyingi hisobotlarni** topshiradilar.

Qo'mita o'z faoliyati yuzasidan hisobotlar topshirishda davlatlardan boshqa vaqt oraliq'ida hisobot taqdim etishni talab qilmasligi mumkin. Qo'mitaga topshiriladigan hisobotlar aniq va oshkora bo'lishi, shuningdek, nogironlar va ularning vakillari bo'lgan tashkilotlar bilan **keng maslahatlashuvlar** asosida tayyorlangan bo'lishi kerak. ⁴ **2022-yil 19-dekabrda Parlament tomonidan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi qabul qilingan.** Mamlakatimiz ilk hisobotini norma talabi bo'yicha ratifikatsiya qilinganidan ikki yil o'tib, **2023 yilda taqdim qildi.** Ushbu hisobotga bir qancha yo'nalishlar bo'yicha materiallar ilova qilingan bo'lib, jumladan: statistika ma'lumotlari, ya'ni nogironligi mavjud shaxslarning soni, ularning ta'lim va ish faoliyatidagi aniq o'rinlari; qonunchilik va normativ hujjatlarning havolalari, yillar davomida qabul qilingan va o'zgartirish kiritilgan sohaga oid normlarning amaliy ifodasi; milliy harakatlar rejasi va implementatsiya strategiyasi; faoliyat yuritayotgan ishtirokchilar va ijtimoiy fondlar va boshqa bir qancha hujjatlardan iboratdir. Ilk hisobot 2021-2023-yillar oralig'ini qamrab oladi. Taqdim qilingan hisobot matniga ko'ra, hozirgi vaqtda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni o'z ichiga olgan qariyb **100 ta normativ-huquqiy hujjat** amal qilmoqda. Ular orasida: 8 ta qonun, 14 ta Prezident farmoni, 28 ta Prezident qarori va 47 ta Vazirlar Mahkamasi qarori mavjud. ⁵ Ko'rib turganimizdek, yurtimiz ushbu hisobotga aniq va faktik ma'lumotlar bilan yondashgan. Umumiy holatda ikki subyekt orasidagi aloqalar ancha ijobiy bo'lib, yillar davomida shakllanib borishiga hech qanday shubha yo'q desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

³ <https://uzbekistan.un.org/uz>

⁴ Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (CRPD)

⁵ Initial report submitted by Uzbekistan under article 35

Maqola mavzusidan kelib chiqadigan bo'lsak, ikki tomonlama aloqa shakli rasmiy uslubga xos bo'lib, xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirilmoqda. **Hamkorlikning asosiy shakllari bir qancha bosqichlardan iborat bo'lib:**

Konvensiya doirasidagi huquqiy islohotlarning mamlakatimizda faollashishi

Davlat va nodavlat tashkilotlar orasidagi muvofiqlashuv bosqichlarining jadallashishi

Qo'mitaning tavsiyalarini bajarish yuzasidan monitoring va hisobot berish

Nogironlar huquqlari bo'yicha fuqarolarni xabardor qilish va fuqarolik jamiyatlarini ushbu ishga jalb qilish va boshqalardan iboratdir.

Boshqa subyektlar kabi bir xil jarayonda amalga oshirilgan. Ikki tomonlama aloqadan albatta, yurtimiz ancha manfaat topadi desak adashmagan bo'lamiz, har qanday jarayonni mukammal holatga kelishi uchun eng muhim jihatlariga e'tibor berish kerak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi ham dastlab ichki normativlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirib, iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilab, so'ngra xalqaro konvensiyaga labbay deb javob qaytardi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston nogironlar huquqlarini ta'minlash borasida faqat xalqaro hisobotlar bilan cheklanmayapti. Mamlakat bu borada ichki strategiyalarni kuchaytirish, xalqaro tajribalarni tatbiq etish va jamiyatda ongli yondashuvni shakllantirish orqali barqaror natijalarga erishishga intilmoqda. Shu kabi jarayonlarni amalga oshirishda xalqaro qo'mitalarning ro'li nihoyatda beqiyosdir desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. O'zbekiston Respublikasining BMTning Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi bilan hamkorligi davlatning inson huquqlarini ta'minlashga doir xalqaro majburiyatlarini bajarishdagi qat'iy irodasini ko'rsatadi. Mazkur hamkorlik nafaqat xalqaro majburiyatlarni bajarish, balki nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy hayotda to'laqonli ishtirokini ta'minlash, ularning huquqlari va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qilmoqda. Bunday faol hamkorlik kelgusida ham tizimli davom ettirilishi O'zbekistonning inson huquqlari sohasida ochiqlik va taraqqiyot sari intilayotgan davlat sifatida nufuzini oshiradi. Ushbu faolliklar va ijobiy islohotlarga yurtboshimizning xalqaro maydonda olib borayotgan faol harakatlari, barcha davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar uchun mamlakatimiz eshiklarining keng ochilishi turtki bo'ldi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Yillar davomida o'z istaklarini amalga oshira olmagan, o'z ovozlari baland ko'tara olmagan minglab hamyurtlarimiz uchun bu kabi o'zgarishlarning qadri nihoyatda baland desak adashmagan bo'lamiz. **Ushbu xulosa qismiga bir necha ijobiy takliflarni ham kiritib o'tsam. maqsadga muvofiq bo'ladi.** Taqdim qilinayotgan hisobotlarning muddatini 4 yildan 1 yilgacha qisqartirish; ikki tomonlama aloqalarning yanada rivojlanishi uchun barcha ekspertlarning turtmizga tashrifini ko'paytirish uchun imkon beradiga ish rejasini ishlab chiqish; xalqaro tajribalardan keng foydalanish; tibbiyot xodimlarini, pedagoglarni, barcha sohaga oid vakillarning kasbiy mahoratini oshirish uchun amaliy kurslar va xorij safarlarini tashkil qilish kabi takliflar foydadan xoli bo'lmagan bo'lar edi. Umumiy jihatdan mavzuga oid fikr va mulohazalarim shundan iborat bo'lib, kelajakda mamlakatimiz nogironligi bor shaxslarga yaratilgan imkoniyatlar va ular uchun ishlab chiqilgan maxsus dasturlar orqali ijobiy natijalar bo'yicha dunyo reytinglarida yuqori pog'onalarida bo'lishiga tilakdoshiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" qonun 2020-yil 15-oktabr, O'RQ-641-son

3. Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.02.2023 yildagi PQ-74-son
4. <https://uzbekistan.un.org/uz>
5. Initial report submitted by Uzbekistan under article 35
6. www.lex.uz